

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH DAVR TALABI

Mahamatova Maftuna

Renessans ta'lim universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası assistenti

www.doi.org/10.5281/zenodo.10554320

Jahon iqtisodiyoti globallasuvi sharoitida mamlakatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Global muammolar, ya'ni ishlab chiqarishning kengayishi natijasida tabiiy va energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi, mintaqalarda iqlimning o'zgarishi, cho'llashishning ortib borishi, suv tanqisligi va dunyo aholi sonining muttasil oshib borishi barcha davlatlar uchun oziq-ovqat xavfsizligini asosiy masalalardan biriga aylantirdi.

Demak, iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishi iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirish va aholini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlashga bog'liqdir. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, iste'mol bozorini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalari oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'lanmoqda. O'z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog'liq hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati, asosan to'rt yo'nalishda amalga oshiriladi: 1) oziq-ovqatning mavjudligi; 2) oziq-ovqatni xarid qilish qobiliyati; 3) oziq-ovqatdan foydalanish; 4) oziq-ovqatning barqarorligi. Mazkur yo'nalishlarni oziq-ovqat xavfsizligining tarkiiy qismlari sifatida qayd etish mumkin.

Iste'mol bozorini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirishda va savdosini tashkil etishda ta'minotning quyidagi jihatlariga etibor qaratish joiz deb hisoblaymiz:

birinchidan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yashil iqtisodiyot talablariga rioya qilish;

ikkinchidan, aholining turli tabaqalari uchun qandolat mahsulotlariga jismoniy va iqtisodiy erishish darajasini ta'minlash;

uchinchidan, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari mahsulotlari narxlarining barqarorligiga erishish;

to'rtinchidan, savdoni tashkil etishda oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va ekologik sofligini ta'minlash.

«Yashil iqtisodiyot» faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Bunda, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, chiqindilarni oqilona boshqarish, cho'llanishni qisqartirish kabi ko'p qirrali chora-tadbirlar ham o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida «Yashil» iqtisodiyotga o'tishdagi navbatdagi qadam oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda aholini ekologik toza tovarlar sotib olishga undash, yashil texnologiyalarga tayanuvchi tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish, ishlab chiqarishda, energiyani ko'p talab qiluvchi tarmoqlarda energiya samarador texnologiyalarni joriy qilishdir. Ushbu tizimni yaratishda davlatning o'zi birinchi navbatda tartibga soluvchi vazifasini bajarishi kerak.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich o'z samarasini berayotganligini davlatimizning global reytinglarda o'z o'rnini yaxshilab olayotganligidan ham ko'rish mumkin. Birlashgan Millatlar

Tashkilotning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti 2022 yil uchun Global ochlik indeksi reytingini e'lon qildi. 121 ta mamlakat joy olgan mazkur reytingda O'zbekiston 21 o'rinni egalladi.

Ustuvor yo'nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan. Bu esa, «O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM), shu jumladan BMTning 2-BRM «Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iste'molni yaxshilash va barqaror qishloq xo'jaligini targ'ib qilish» da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, ichki bozorni oziq-ovqat bilan to'ldirish, ularni ishlab chiqarish sohasida o'z-o'zini ta'minlashga erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash O'zbekiston iqtisodiyotining muhim sektori hisoblangan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sanaladi. Shu jihatdan O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan unumli, samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni yanada mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushining yuqori bo'lishiga erishish zarur.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur".

References:

1. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida 483-I sonli O'zbekiston Respublikasining qonuni. 30.08.1997. <https://lex.uz/docs/20326>.
2. Кострова Ю.Б. Анализ продовольственного рынка России. Монография. - СПб: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. - с. 8
3. Нуралиев С.У., Нуралиева Д.С. Основные направления развития и регулирования продовольственного рынка в условиях вступления России в ВТО. // Пищевая промышленность. -2012. -№12. – с. 10-13
4. Azlarova M. Impact of technology-supported marketing strategies on food security and provision: Evidence from Uzbekistan's confectionery industry //Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2022. – С. 39-45.
5. FAO, IFAD, UNICEF, WFP and WHO. 2020. The state of Food Security and Nutrition in the World 2020. Transforming food systems for affordable healthy diets. Rome, FAO. <https://doi.org/10.4060/ca9692en>